

---

Qo'shtepada xayrli amallar keng quloch yoydi

3-dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan Qo'shtepa tumanida ijtimoiy ko'makka muhtojlarga muruvvat ko'rsatishdek xayrli amallar keng quloch yoydi.

Ushbu saxovat tadbirlarida "Baland masjid" mahallasining mas'ullari ham faol ishtirok etishdi. "Asl sog'lik qalbning o'zida" shiori ostida o'tkazilgan tadbir davomida mahalladagi bemorlar, imkoniyati cheklangan va ehtiyojmand oilalar vakillariga muruvvat ko'rsatilib, ularning xolidan xabar olindi.

